

## МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA EKOLOGIK TARBIYANI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

*Tojiboyev Murodali Umaraliyevich*

*Andijon davlat pedagogika instituti, Tabiiy fanlar kafedrasi dotsenti,  
Andijon sh. Do'stlik ko'cha 4 uy.*

*Tolipova Asilabonu Qahramon qizi*

*Andijon davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi,  
Andijon sh. Do'stlik ko'cha 4 uy.*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof-muhit bilan bog'liq bo'lgan tarbiyaviy masalalar va ularning yechimlari haqida ilmiy adabiyotlar tahlil qilingan. Shuningdek, Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino va Zahiriddin Muxammad Boburlar tabiat fanlarining rivojlanishiga qo'shgan hissalarini o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, ekologiya, ekologik tarbiya, ekologik madaniyat.

Kishilik jamiyatining taraqqiyoti ko'plab ijobiy jihatlardan bir qatorda, bir qancha salbiy oqibatlarini ham keltirib chiqarmoqda. Jamiyatning atrof-muhit bilan o'zaro buzilgan aloqasi natijasida, hozirgi vaqtda yuzaga kelgan ekologik muammolar va ularning oqibatlari, Yer shari aholisining barcha qatlamlarini birdek tashvishga solmoqda. Vaholanki, barcha davlatlarning Asosiy Qonunida va qonunosti hujjatlarida insonlarning atrof-muxitga va tabiiy boyliklarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishlari haqida qator moddalar va boshqa normativ-huquqiy xujjatlar mavjud. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida «Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar», 55-moddasida esa «Yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muxofazasidir» – deyilgan.

Tabiiy boyliklardan haddan tashqari ortiqcha foydalanishi oqibatida sayyoramizning qiyofasi yaqqol o'zgarib bormoqda. Yashil o'rmonlar siyraklashishi, o'simlik, hayvonot turlari va ularning populyatsiyalarining kamayishi, qayta tiklanmaydigan foydali qazilma boyliklar hamda energiya resurslari zahiralarning tugab borishi kuzatilmoqda. Suv xavzalari va atmosfera havosining ifloslanishi, chiqindi moddalarning ortib borishi natijasida aholini oziq-ovqat xavfsizligi, energiya va chuchuk suv ta'minotiga taxdidlar borgan sari kuchayib bormoqda. Oqibatda, million yillar davomida turg'un bo'lgan tabiiy ekosistemalar holatga putur yetmoqda.

O'rta asrlarda yashab ijod etgan olimlar Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, ham yurtimiz Zahiriddin

Muxammad Bobur va boshqalar tabiat fanlarining rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar. Ular ekologiya fani fan sifatida hali shakllanmagan davrda tabiat va undagi muvozanat, o'simliklar va hayvonot dunyosi, tabiatni e'zozlash haqida qimmatli fikrlarni o'z asarlarida yozib qoldirganlar. Tabiatshunoslikka oid "Kitob al-mabodi al-insonia", "Kalam fia'zo al hayvon" kabi asarlarida odam va hayvonlar ayrim a'zolarining tuzilishi, xususiyatlari va vazifalari haqida, ularning o'xshashligi va farqlari keltirilishi bilan birga, asosiy anatomik fiziologik tushunchalar berilgan. Ularining ruhiy holatlaridagi hususiyatlari haqida ham to'xtalib o'tilgan. Kasalliklarining oldini olish, sog'lomlashtirish va boshqa chora-tadbirlarni qo'llash lozim ekanligi haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga atrof-tabiiy muxit haqida va tiriklik haqidagi dastlabki tushunchalarni singdirib borish dolzarb masala hisoblanadi. Bunda mehnat muhofazasi, tabiatni asrash, noyob o'simlik va jonzorlar ro'yxati, tabiat va atmosferadagi inqirozlar oldini olishga oid tushunchalar va qonuniyatlarga e'tibor beriladi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad – muqaddas Ona yurtimiz atrof-tabiiy muxiti (havo, suv, tuproq)ni musaffo xolda saqlashga va uning boyliklari (o'simliklar, hayvonlar, foydali qazilmalar)ni asrab-avaylashga bo'gan e'tiborni kuchaytirishdan iborat. Bu ona diyorumizni obod etishga qo'shiladigan katta hissa bo'lib, uning yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarda obodonchilik va orastalik, pokizalik va tejamkorlik, xushxulqlik va xushmuomalalik kabi insoniy fazilatlar shakllanadi. Bular maktabgacha yoshdagi bolalarda quyidagi ekologik qonuniyatlar va tushunchalarni ongli ravishda anglashni kafolatlaydi.

Ota-bobolarimiz «Suv - tabiat in'omi, hayot manbai», deb bejiz aytishmagan. Har tomchi suvni gavhardek qadrlab, bog'-rog'lar yaratishgan. Mustabid tuzum davrida respublikamizda suvdan xo'jasizlarcha foydalanish Orol va Orolbo'yi muammosi vujudga keltirdi. va uning salbiy oqibati butun Markaziy Osiyo mintaqasiga tarqaldi. Undan tashqari, mintaqada o'z yechimini kutib turgan bir qancha turli darajadagi ekologik muammolari ham mavjud. Demak, maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berishda milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar, marosimlar, nodir qo'lyozmalar va davlat arboblarning sohaga oid faoliyatlari mustahkam didaktik asos bo'lib, ular orqali atrof-muhitni toza saqlashga, pokizalikka va asosiysi sog'lom turmush tarzi va muhitini tashkil etishga o'rgatiladi. Bu borada, ekologik tarbiya yo'nalishlari ham turli xil bo'ldi.

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni yashab turgan joyidagi tabiatimiz boyliklarini tejab-tergashga, uni muhofaza qilishga o'rgatish;

2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'z ta'lim muassasalari va uning tevarak-atroflarini ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish, mevali va manzarali daraxtlar hamda mavsumiy gullar ekishga o'rgatish;

3. Maktabgacha yoshdagi bolalarda xiyobonlarni, suv havzalarini ozoda saqlash ko'nikmalarini shakllantirish;

4. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik madaniyatni shakllantirish orqali ularda ekologik dunyoqarash va savodxonlikni yuksaltirish;

5. Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida atrof-muhit va uning shaxs ma'naviy dunyosiga ta'siri haqidagi tasavvurlarni shakllantirish;

6. Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida tabiat va uning boyliklarining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va atrof-muhit muhofazasida bolalarning vazifasi haqida haqidagi tasavvurlarni paydo qilish;

7. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta'lim-tarbiya berishda ta'lim muassasalari va oila o'rtasidagi hamkorlikni yo'lga qo'yish;

8. Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida tabiatni muhofaza qilishda ota-ona ibrat namunasi haqidagi tasavvurlarni hosil qilish;

9. Ta'lim muassasasida "Jonli tabiat burchagi", kichikroq gulzor va mevali bog tashkil qilish orqali maktabgacha yoshdagi bolalarni oilada va ta'lim muassasasidagi o'simliklar va hayvonot dunyosini e'zozlash, jonivor va qushlarni parvarish qilishdagi bilim va ko'nikmani rivojlantirish;

10. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta'lim-tarbiya berishda milliy qadriyatlar, an'analar va urf-odatlariga aloxida e'tibor qaratish;

11. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta'lim-tarbiya berishda o'quv mashg'ulotlarida «Tabiat va inson», «Ekologiya va inson», «Orol madad so'raydi», «Tabiatni e'zozlaylik», «Suvni muqaddas deb bilaylik», «Qushlar bizning do'stimiz», «Yashil do'stlarimiz» va shu kabi mavzularda jonli suhbatlar uyushtirish.

Yuqorida sanab o'tilgan ekologik ta'lim-tarbiya yo'nalishlarini barcha davlat va xususiy maktabgacha ta'lim muassasalarida joriy qilish va uni yuqori darajada yo'lga qo'yish orqali uzluksiz ta'lim tizimining keyingi bosqichlarida kutilgan natija va quvonarli samalarga erishish mumkin bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Wofford J.C. Experimental analysis of a cognitive model of motivation. //J. Psychol. London, - 1990. - Vol. 124, № 1. - P.87-101.
2. Выготский Л.С. Развитие высших психических функций. //Собр.сочинений. т.3. – М., 1982.
3. Yusupov O.N. Cognitive semantics in context. Wschodnioeuropejskie Czasopismo Naukowe 7 (2), 84-87.
4. Юсупов О.Н. Ўзбек адабиётининг инглиз тилидаги таржималарининг лингвокогнитив тадқиқи. Сўз санъати халқаро журналі. 3 сон, 3 жилд. Б.102-105.